
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZULFIYA SHE'RIYATIDA AYRIM FRAZEMALARNIING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI HAQIDA

To'ychiyeva Zulayho Hamraqulovna,
Guliston davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Ma'lumki, so'z badiiy adabiyotning eng muhim tasvirlash qurolidir. Har bir qalam sohibi ana shu qurol vositasi bilan obraz yaratadi. Obrazning real va haqqoniy bo'lishi yozuvchining xalqning tuganmas xazinasi bo'lgan so'z boyligidan qanday foydalanishiga ham bog'liqdir. Har bir yozuvchi o'z xalqining so'z boyligini qancha chuqur va mukammal egallasa, u yaratgan asar badiiy jihatdan shuncha nafis, bo'yoqdor va rang-barang bo'ladi. Shuning uchun ham ijodkor o'zi yaratayotgan obrazning individual xususiyatlarini ochib berishda, ularning to'laqonli bo'lishini ta'minlashda tildagi ana shu xilma-xil qiymatlarga ega bo'lgan so'zlardan unumli foydalanadi. Barcha jonli tillarda bo'lganidek, o'zbek adabiy tilining takomillashuvi va rivojlanishida, yozma va og'zaki nutqning silliqlashuvida badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. Bunda badiiy nutq vositalarining barchasi tasvirda o'ziga xos o'rin egallaydi. Shulardan biri frazemalarning qo'llanishidir.

Frazeologik birliklar oddiy so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birliklarning asosiy qismi ma'no jihatidan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, hatti - harakatini baholaydi.

Binobarin, frazeologik birliklar badiiy asarda asosan uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda iboralarning qo'llanish maqsadi xususida tadqiqotchilarimiz tomonidan turli fikrlar bildirilgan bo'lib, ularning fikrlari bir-birini to'ldirib boradi. Tildagi obrazlilikni ifodalovchi vositalar ichida frazeolofizmlar alohida o'rin tutadi. Chunki ular kesatiq, nafrat, jirkanish, so'kish, qarg'ish kabi salbiy, erkalash, hazil, rag'batlantirish kabi ijobiy qo'shimcha ma'no nozikliklarini ifoda etuvchi obrazli til birliklaridir.

Frazeologik birlik ifodalaydigan ma'no ko'pincha so'zga teng bo'lsada, ayrim jihatlari bilan birgina so'z beradigan lug'aviy ma'nodan farq qiladi. Frazeologik ma'no so'zga qaraganda so'zlovchining fikrini kuchli darajada ifodalaydi, chunki unda obrazlilik, ta'sirchanlik belgisi mavjud bo'ladi. Shoir va yozuvchilarning asarlarida uslubiy bo'yoqdorlik turli xil usullar yordamida ifodalanadi. Kishining ehtirosini ifodalashda leksik birliklar, ayniqsa frazeologizmlar, maqollar va o'xshatishlar muhim o'rin tutadi.

Frazeologik birlik sifatida ibora atamasi ham ishlatiladi. Ikki va undan ortiq so'zdsn tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan til birligiga ibora (frazeologik birlik) deyiladi: qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (cho'chidi), og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi (lapashang) va h.

Iboralar ahamiyati va qo'llanishi jihatidan, odatda, so'zga teng keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi. Ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan va yaxlit bir ma'noni ifodalaydigan til birliklariga frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

O'zbek tilida alohida o'ringa ega bo'lgan iboralar bu til mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazinadir. O'zbekistonda maqol, naql, iboralar ustida ilmiy-ijodiy ishlar olib borilgan.

Taniqli shoir va yozuvchilarning frazeologik birlik, frazeologizm, frazemalardan mohirona foydalanib, personajlar nutqini individuallashtirish, asarning ta'sirchanligini oshirish sohasidagi zahmatli ijodiy mehnati haqida qator risolalar, monografiyalar yaratilgan. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sharll Balli[1] asos solgan. Rus tilshunosligida V.Vinogradov[2] iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi. V.Jukov[3] esa frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlani

[1] Balli Sh. Французская стилистика. – М.: Из-во иностр.литры, 1961. – С. 89-90.

[2] Виноградов В. Грамматика русского языка. 1952-1954.

[3] Jukov A.V. Фразеологичэская преходность в русском языке. – Л.: ЛГПИ им. А.И.Герцена, 1984. – С. 25-31.

Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, I.Qo‘chqortoyev, A.Rafiyev[1] kabi olimlar ishlarida keng yoritilgan. Olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan tadqiqotlarda frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. Jumladan, shoira Zulfiya ham o‘z ijodi davomida umuman tilga, jumladan, ibora qo‘llashga ana shunday mas’uliyat bilan yondoshadigan so‘z san’atkorlaridan biri edi.

Shoira Zulfiya asarlarida yetti yuzga yaqin frazemalar qo‘llangan bo‘lib, ularning asosiy qismi jonli so‘zlashuv nutqiga xoslangan va kitobiy frazemalar sanaladi. Masalan, *jonini olmoq*, *iziga tushmoq*, *qo‘sha qarimoq*, *ter to‘kmoq* kabi jonli so‘zlashuv nutqiga xoslangan frazemalarni, *nazar tashlamoq*, *dilni yoritmoq*, *ko‘ksini baland qilmoq* singari kitobiy frazemalarni, *qatim tortmoq, eshikka chiqmoq* kabi dialektal xarakterdagi frazemalarni, *bag‘ri tosh, bir so‘zlab, o‘n kulmoq* kabi xalq og‘zaki ijodiga xoslangan frazemalarni ham uchratamiz[2].

So‘z san’atkorlarining adabiy tilni taraqqiy ettirishdagi xizmati ham, umuman olganda, ularning “yangi so‘zlar” yaratishlari bilan belgilanmaydi (chunki bunday ijod qilish, umuman olganda juda kam uchraydigan hodisadir), balki birinchi navbatda, ularning xalq tili boyligidan qanday foydalanishlari, jonli xalq tili xazinasidan olingan so‘z va iboralarni qayta ishlab, qanday silliqlashtirishlari bilan belgilanadi[3].

Zulfiya sharq ayoliga xos yuksak ibratli hayot yo‘li bilan barcha xotin-qizlarga o‘rnak bo‘lib yashab o‘tgan ijodkordir. Zulfiyaning hayoti va ijodi‘‘ ma’naviy jasorat, mehr va sadoqat timsolidir.

Shoira hayotni haqqoniy aks ettirish, tasvirida tabiiylikni ta’minlash uchun xalq tili boyligini, uning o‘ziga xos xazinasini chuqur o‘rganadi. Ana shunda qalamning mo‘jizakorligi, shoiraning kashfiyoti, oddiy so‘zlarda tovlangan ohor, she’riy tasvirdan quyilgan yog‘du borligimizni zabt etadi:

Koshki edi men boshingda
Turgan bo‘lsam o‘sha dam,
Kirmasmidim men qoningga,
Bermasmidim jonni ham.

Keltirilgan she’riy parchaning birinchisida – Zulfiyaning bandida yurak harorati bor. Shoira aks ettirmoqchi bo‘lgan voqeani chuqur his etgan, tafakkur talqinidan o‘tkazgan. Butun vujudini larzaga solgan hayajonini, ichki tug‘yonini misralarga quyishda qalamini shoiraning yuragi boshqargan. Shuning uchun bandda mujassamlashgan badiiy mazmunni juda go‘zal ravishda ifodalay olgan. Shuningdek, tasvir uslubi sodda, oddiy. Shoira ana shu oddiy uslubdan bandning mustahkam muskulini tiklagan va qaynoq nafosatini yuzaga keltirgan. Shoira so‘zlarni shunday qo‘llaganki, misradagi har bir so‘z shu satrning qonuniy a’zosiga aylangan va ajoyib timsollar yaratishga, holatni to‘liq gavdalantirishga imkon bergan. Shoira eng aziz do‘stiga xitob qilib: “*Kirmasmidim men qoningga, bermasmidim jonni ham*” deydi. Ko‘rinishdan bu oddiy tasvirga o‘xshaydi. Ammo qalamkash ana shu oddiylik orqali tabiiylikka erishadi. Natijada ”*qonga kirmoq*”, ”*jonni bermoq*” timsollari kishini o‘ziga tortuvchi, tasvirlanayotgan mudhish voqeaning ishtirokchisi sifatida to‘lqinlantiruvchi, kitobxon qalbiga zarb bilan urilib, alam - qayg‘u nidosida chayqaltiruvchi kuch kasb etadi. Oddiy so‘zlardan ana shu darajada tug‘yonkor ruhiy kayfiyatni ifodalashga imkon topish shoira qalamining mo‘jizakorlik qudratidan bir nishonadir.

Shoiraning she’rlarini o‘qir ekanmiz, qalami mo‘jizakor, xalq tili boyligidan mohirona foydalanganligini ko‘ramiz.

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, ellarda bahor.
Qushlarning parvozi, ellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Ushbu keltirilgan misralarda ”*Binafsha labida*”, ”*ellarning nozi*” birikmalariga e’tiborni qaratmoqchimiz. Bu misralarda shoira ”binafsha labi” deb bahor go‘zalligini o‘ta noziklik bilan o‘xshatishdan foydalanganligini, keyingi misradagi ”ellarning nozi” deb bahor shamolining mayin esishi, nafis tarovatiga ta’rif beradi.

Badiiy asar tilida frazeologizm hech qanday o‘zgarishsiz, umumtil shaklida qollanishi bilan birga, xilma-xil struktur-semantik o‘zgarishlarga ham uchraydi. Bunday o‘zgarishlarga uchragan frazeologizmlar frazeologik uslubshunoslik fanida okkazional frazeologizmlar deb yuritiladi. Okkazional iboralar tarkibida yuz beradigan tarkibiy o‘zgarishlar matnda emotsional-ekspressivlk, uslubiy bo‘yoqdorlikni vujudga keltirish ehtiyoji asosida ro‘y beradi. Bunday holatlarni lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil etish faqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik fani uchun taalluqli bo‘lmay, dolzarb umumfilologik muammo sanaladi.

Shoira ijodida frazemalar birinchi navbatda matnning obrazliligi, ta’sirchanligini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Frazemalarning matn tarkibidagi qo‘llanish chastotasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning ta’sirchanlik quvvati ham shunchalik oshgan bo‘ladi. Masalan, shoira asarlarida eng ko‘p qo‘llanadigan frazemalar ”*jon*”, ”*ko‘z*”, ”*bosh*” komponentlari yordamida shakllangan. Masalan, shoira o‘z she’rlarida *jon kirmoq*, *jon bermoq*, *jonim bilan*, *jon olmoq*, *jonidan judo qilmoq*, *joni chiqmoq*, *jon kuydirmoq*, *jon fido qilmoq*, *joni halqumiga kelmoq*, *joni o‘rtan-*

[1] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1978; Sodiqova M. O’zbek tilining orfografik lug‘ati. – Toshkent, 1977; Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: ToshDU nashri, 1975. – B 48-72; Rafiyev A. O‘zbek va rus tillarida ravish frazeologik birliklar. – Toshkent, 1999.

[2] Zulfiya. Asarlar. Ikki tomlik. 1-tom. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nosmidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

[3] Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san’ati. – Toshkent, 1962. – 201 b.

moq singari ”*jon*” komponentli frazemalarni qo‘llashga, matn tarkibida ularning okkazional ma’nolarini ro‘yobga chiqaishga alohida e’tibor qaratgan edi[1].

Badiiy uslub til birliklaridan foydalanishda ijodkorga nihoyatda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunda biror mazmun va obraz yaratishda ijodkor tilida mavjud shakllardan tashqari yangi modellar ham hosil qilish mumkin. Zero, bunda eng asosiy maqsad badiiylikni yuzaga chiqarishdan iborat bo‘ladi. Badiiy matnda biror maqsad yo‘lida hosil qilingan ijodkorning individual uslubigagina xos bo‘lgan yangi shakllar okkazionalizmlar deyiladi.

Zulfiyaning ”Oltin kuz” she’rida mana shunday individual, hech kimda uchramaydigan so‘zga guvoh bo‘lamiz:

Men g‘amgin boqmayman, ko‘nglimda bahor,
Oltin yaproqlarga qarab tolmayman.
Yasan kelinchakday har bir daraxtni
Sevaman! Nigohim uza olmayman.[2]

Kuz ko‘pincha ayriliq ramzi sifatida shoira asarlarida tasvir obyektiga aylangan. Yuqoridagi she’rda lirik qahramon, yani shoiraning o‘zi kuzga o‘zgacha yondashadi. Chunki uning qalbida bahor kayfiyati hukm surmoqda. *Oltin yaproqlar* bezangan daraxtni yasan kelinchakka o‘xshatmoqda. ”*Yasan*” so‘zi aslida fe’l so‘z turkumiga oid bo‘lib, *yasamoq* fe’lining o‘zlik nisbatdagi shakli hisoblanadi. Yasanmoq fe’li 3-shaxs birlikdagi buyruq istak shaklida matnda qo‘llangan. Ammo bu fe’l boshqargan *kelinchakday* so‘zi *yasan* fe’lini o‘tgan zamon –gan formasida bo‘lishini talab qiladi. Agar shoira ushbu birikmani *kelinchakday yasangan* tarzida aslida qo‘llasa, inversiya sodir bo‘lmasa, misralar ohangdoshligiga putur yetishi mumkin. Bu misolda shoira tomonidan qo‘llangan *yasan* so‘zi morfologik-sintaktik okkazionallik hosil qilmoqda.

Inson uchun eng katta baxt – tinchlik, xotirjamlik. Hech kim urushni, o‘q tovushini eshitishni istamaydi. Dunyoda tinchlik, xotirjamlikni ko‘rmasdan ”ko‘z yummoq”qa haqqi yo‘qligini quyidagi parchada yorqin tasvirlaydi:

...Sarhisob chog‘imas,
Maslak bir talay.
Uzun umr ato qilgan toleyim.
Jahonda o‘q tovushin o‘pganim bilmay,
Dunyodan tinchgina ko‘z yumadi kim?

Misollardan ko‘rinadiki, shoira o‘z asarlari tilini shirali va ravon qilish uchun xalq tilidan foydalanar ekan, unga ehtiyotkorlik va hurmat bilan yondashadi.

Shu bilan birga shoira ”O‘g‘irlamang qalamim bir kun” she’rida ”*jon ko‘chirmoq*” okkazional frazemasini yaratgan edi:

O‘g‘irlayman qalaming bir kun!
Hazilingiz *ko‘chirdi jonim*.

Yoki ”*yoqasidan tutmoq*” frazemasi tilimizda asosan shaxsga nisbatan qo‘llanadi va ”*ajablanmoq; jazolamoq*” ma’nolarini bildiradi[3]. Shoira bu frazemani jonsiz narsa – qish fasliga nisbatan qo‘llaydi, bu esa o‘sha frazemaning ekspressivlik darajasining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi:

Mana qimmatligim, yana bahor kelib
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekildi nari[4].

Shoira Zulfiya asarlarida birgina ”ko‘z” komponentli frazemalardan unumli foydalangan. Masalan, ko‘z-ko‘z qilmoq, ko‘z uzmaslik, ko‘z ilg‘amoq, ko‘z yummoq, ko‘z-quloq bo‘lmoq, ko‘z yugirtirmoq, ko‘zga surmoq singari bir qator ”ko‘z” komponentli frazemalarning mahorat bilan qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz. Ayrim o‘rinlarda ”ko‘z” komponentli frazemalar bir necha ma’noda, polisemantik frazema shaklida qo‘llanadi. Masalan, ”ko‘zi ochilmoq” frazemasi shoira asarlarida quyidagi ikki ma’noni ifodalaydi:

a) hushyor bo‘lmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan bo‘lmoq:
Bir bor ko‘zi ochilgan inson
Unda topmas panoh va yo‘ldosh;
b) g‘am-kulfat olovida yonmoq:
Ko‘z ochgani qo‘ymadi alam,
Boshim qo‘ysam kuydirar bolish;
v) haqiqatga erkin, tik qaramoq:
Ochiq ko‘zlar bilan olamga boqding,
Hayotni taniding rang-barang va keng.

Shu bilan birga shoira asarlarida ”*ko‘z*” komponentli umumxalq tili frazemalari modeli negizida quyidagi singari bir qancha individual-muallif yoki okkazional frazemalarning shakllangani ham ko‘zga tashlanadi: *yurakning ko‘zi*, *ko‘zi kirmoq*, *qoshi-ko‘zdan ham yaqin*, *butun vujudi ko‘z bo‘lmoq*, *borlig‘i ko‘z bo‘lib boqmoq*, *ming ko‘z bo‘lib boqmoq* kabilar.

Zulfiya asarlarida *ko‘z yummoq, qo‘lga olmoq* singari bir qancha birikmalar ham o‘z na’nosida (erkin birikma sifatida), ham ko‘chma ma’noda (frazema sifatida) qo‘llangani kuzatiladi:

Bir dam *yumdi ko‘zini*, ammo
Og‘ir bo‘ldi dard chekmoq tanho;
Ozod yurtda berganim-chun jon,
Ko‘z yumaman mag‘rur, bearmon;
Jangda yenggan otang qaytib *qo‘liga oldi*,
Go‘daklikdan bir umrga to‘xtadi yoshing.

[1] Zulfiya. Asarlar. Ikki tomlik. 2-tom. Dostonlar, tarjimalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.
[2] Zulfiya. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.7.
[3] Rahmatullayev Sh. va b. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
[4] Zulfiya. Asarlar. Ikki tomlik. 1-tom. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

Zulfiyaxonim o‘z poetik asarlari tilining ravon va mazmundor bo‘lishi uchun, qofiyalarning to‘q va misralarning teng bo‘lishi uchun kurashar ekan, ba’zan turg‘un birikmalar – frazemalarni ham asosiy mazmunini buzmagan holda shaklan yo kengaytirib, yo qisqartirib beradi:

Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,
Ona bo‘lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.

Ushbu she’riy parchada ”*yo‘lga solmoq*” iborasi orqali qo‘llangan. Otaning burchi farzandni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, hayotning past – balandini o‘rgatish, xalqqa va jamiyatga nafi tegadigan qilib tarbiyalash. Shoira bu yukni ham o‘zi bajarganligini, ham ota, ham ona vazifasini bajarganligini ”*yo‘lga solmoq*” iborasi quyma misralarda ko‘rsata olgan. Bunda ”*yo‘lga solmoq*” iborasini qo‘llab, bu orqali chuqur ma’noni ifodalashga erishgan.

Bundan tashqari shoira asarlarida frazemalarni transformatsiyalashning o‘ziga xos usullaridan ham keng foydalangan:

1) Frazema komponentlarini o‘rin almashtirish usuli yordamida transformatsiyalash: so‘zining ustidan chiqmoq[1], bel bog‘lamoq[2] kabilar:

Teramiz sur’atni bo‘shatmay bir dam,
Ishonch zo‘r *chiqamiz so‘zning ustidan*;
Yeng shimarib *bog‘lashib belni*
El istagin etamiz bajo.

2) Ma’nodosh frazemalarni bir matnda yonma-yon qo‘llash orqali trasformatsiyalash: *jon bermoq – qon bermoq*[3]; *yuzini yerga qaratmoq – boshini yerga qaratmoq; yuragi urmoq – yuragi tepmoq*[4].

3) Frazema tarkibiga uning ma’no qirrasini to‘ldirishga xizmat qiluvchi so‘z (element) kiritish orqali transformatsiyalash:

Sening pok parchangga bosib kirdi yov
Bizning saodatga *solmoq bo‘ldi chang.*

Ma’lumki, adabiy tilda ”*igna bilan quduq qazimoq*” kim? frazemasi bo‘lib, ”ko‘p kuch va vaqt talab qiladigan, mashaqqatli mehnatni bajarmoq”. Varianti: **nina bilan quduq qazimoq** ma’nolarini bildiradi (O‘TFL, 194)[5]. Shoiraning “O‘zimga” she’rida ana shu umumtil frazemasi asosida “xotira qudug‘ini qazimoq” individual-muallif frazemasini hosil qilgan:

Qit’adan qit’aga kezding piyoda,
Xotirang qudug‘in qazish kerak xo‘p.

Shu bilan bir qatorda ”*xirmon ko‘tarmoq” kim?* ekin-tikinni yig’ib, hosil me’yorini hisob-kiob qilmoq umumtil frazemasi bo‘lib, varianti: xirmonni ko‘tarmoq” hosil me’yorini hisob-kitob qilmoq” ma’nosini bildiradi. (O‘TFL, 537). Shoira paxtakorlar mehnatiga madhiya sifatida yozilgan ”Tahsinu ta’zim!” she’rida bu frazemaning ta’sirchanlik darajasini oshirish maqsadida uning oldidan ”*oyda*” komponentini qo‘llab, uning tarkibini kengaytiradi:

Bugungi yashnagan bepoyonlik kam,
Ko‘tarmoq bo‘lasiz *oyda ham xirmon.*

Shoira she’rlarida qo‘llangan tongni kuylayman; oppoq, nurli tongni kuylayman; ona qalbi oyoqqa tursa, o‘g‘lim sira bo‘lmaydi urush; jo‘shqin mushoira etadi davom, do‘stim kel sen ham kabi misralar hozirgi kunda o‘tkir aforizmlar, hikmatli frazemalar sifatida jaranglamoqda. Bu esa shoira she’riyati xalqimiz qalbiga juda yaqin, uning orzu-intilishlari bilan hamohang ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalqining sevimli qizi Zulfiyaxonim ijodi o‘ziga xosligi bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. U mohir so‘z san’atkori sifatida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalandi. Shoira she’rlari tilining sodda va ravonligi, badiiy til vositalaridan unumli foydalanilganligi bilan kitobxonlarni o‘ziga jalb etadi. Badiiy nutq nutqning boshqa nutqlardan asosiy farqi shundaki, unda tilning kommunikativ vazifasi bilan bir qatorda estetik vazifasi ham yuzaga chiqadi. Badiiy til vositalari tilning estetik vazifasini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada Zulfiya she’rlarida tilning soddaligi, xalqona iboralarni qo‘llashga intilgani va hayotni, borliqni, insonning his-tuyg‘ularini hayotiy, ta’sirchan, obrazli, o‘ziga xos shoirona tasvirlash, ularning o‘ziga xosliklarini o‘rganish nazarda tutilgan.

Resume: This article focuses on the simplicity of language in Zulfiya’s poems, the attempt to use folk expressions, and the vivid, impactful, and unique poetic depiction of life, existence, and human emotions, with an emphasis on studying these unique features.

Резюме: В статье анализируются вопросы творчества поэтессы Зулфии. В её творчестве выражены различные чувства, мысли, идеи: жизнелюбие, восторг созидания, радостные надежды на будущее, счастье человечества.

[1] Zulfiya. Asarlar. Ikki tomlik. 1-tom. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 145 b.
[2] O‘sha asar. 26-b.
[3] O‘sha asar. 79 -b.
[4] O‘sha asar. 19-b.
[5] Rahmatullayev Sh. va b. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.